

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA

**HAMID OLIMJON DOSTONLARIDA QOFIYANING NUTQIY
XUSUSIYATI VA BADIY-ESTETIK VAZIFALARI**

10.00.01. – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in
philological sciences**

Raximova Umida Djumayevna

Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning nutqiy xususiyati va badiiy- estetik
vazifalari 3

Рахимова Умида Джумаевна

Риторические особенности и художественно- эстетические функции рифмы в
эпосах Хамида Алимжана 27

Raximova Umida Dzhumaevna

Rhetorical features and artistic and aesthetic functions of rhyme in the epics of Hamid
Alimzhan 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA

**HAMID OLIMJON DOSTONLARIDA QOFIYANING NUTQIY
XUSUSIYATI VA BADIY-ESTETIK VAZIFALARI**

10.00.01. – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.3.PhD/Fil1929 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Termiz davlat universiteti veb-sahifasining www.tersu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmaraimova Shoxista Tuxtashevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bahriddinova Bashorat Madiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Karimov Suyun Amirovich
filologiya fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 10 » aprel soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (139 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 08 » aprel kuni tarqatildi.
(2023-yil « 08 » aprel dagi 21 raqamli reestr bayonnomasi).



B.Umurqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eshmuminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ketibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.Yoqubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asr jahon tilshunosligida matnni lingvistik jihatdan tadqiq qilishning alohida yoʻnalishi – poetik matnshunoslik borasida amalga oshirilgan izlanishlar salmogʻi bir qadar oʻsdi. Zamonaviy sheʼriyat hamda mumtoz adabiy anʼanalarning sintezini namoyon etuvchi bu yoʻnalish asosiy eʼtiborni beshta aspekt: sheʼriy matnning prosodik xususiyatlari, vazniy-ritmik tarkib, sheʼriy matnning leksik tizimi, poetik frazeologiya va sintaksis hamda qofiyani sheʼriy matnni uyushtiruvchi alohida sheʼriy sanʼat sifatida oʻrganishga eʼtibor qaratmoqda. Poetik matnni tizimli va kompleks tekshirishning dolzarb muammolari esa mazkur tadqiqotchilikning zamonaviy bosqichini belgilab berdi.

Dunyo tilshunosligida qofiyaning sheʼriy matn mazmuniy koʻlamida voqelanish imkoniyatiga urgʻu berilib, uning fikrni shakllantirish va uyushtirish vazifasi ijodkor idiolekti rakursida tadqiq etilmoqda. Binobarin, qofiyani sheʼriy matnning formal, semantik-pragmatik xususiyatlarni ochuvchi noyob badiiy sanʼat, usul sifatida sinxron va diaxron yondashuvlar kesimida tadqiq etish masalalariga nazariy hamda amaliy yechim topish sohaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida jamiyat hayotining turli sohalarida aniq maqsadga yoʻnaltirilgan izchil islohotlar olib borilishi natijasida qariyb unutilishga kelib qolgan madaniy qadriyatlarimiz, xususan, milliy tilimiz va adabiy anʼalarimiz negizlarini rivojlantirishga boʻlgan eʼtibor kuchaydi. Buning natijasida tilshunosligimizda poetik matnshunoslikning turli sohalariga oid bir qator tadqiqotlar bajarildi. Shu bilan bir qatorda, har bir ijodkorga xos boʻlgan idiolektning lisoniy-estetik xususiyatlarini ochib berish ham muhim lingvistik muammolardan biridir. “Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim”¹. Shu maʼnoda milliy tafakkur hamda koʻp yillik anʼana va qadriyatlarimizning yorqin ifodasi boʻlgan oʻzbek sheʼriyati va uning sirasida qofiya sanʼatining badiiy-estetik xususiyatlarini oʻrganish, hozirgi taraqqiyot manbalarini kompleks tadqiq etish tilshunosligimizdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6084-son farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-yanvardagi 2022-2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” toʻgʻrisidagi № 32517-son farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2789-son, 2019-yil 4-oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини tubdan ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730

haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi “2010-2020-yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ-222-son qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fanda qofiyaning o‘rganilishi: Xalil ibn Ahmad, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abulhasan Ali Sarahsiy Bahromiy, Shamsiddin Qays Roziy, Bobur, Vohid Tabriziy, Atoulloh Husayniy, Shayx Ahmad Taroziy, Fitrat, A.Rustamov, I.Mirzayev, A.Hojiahmedov, S.Karimov, H.Mirhaydarov, A.A’zamov, X.Sharofiddinov, M.K.Xamrayev, L.I.Timofeev, F.A.Hayitmetov, B.Goncharov, V.M.Jirmunskiy, Y.Lotman, V. Radlov va F. Korsh² kabi filologlar tomonidan amalga oshirilgan.

Qardosh xalqlarda qofiya: 1) Sharq poeziyasida qo‘llanilgan arabiy va forsiy qofiya tizimi misolida (tojik adabiyoti: B.Sirus); 2) tuzilishiga nisbatan (qirg‘iz adabiyoti: B.Kerimova); 3) qiyosiy tahlil va qofiyaning leksik-semantik tabiati (uyg‘ur adabiyoti: M. Hamrayev); 4) idiolektni belgilovchi vositalarning biri sifatida (M.P. Shtokmar) o‘rganilgan.

H.Olimjon ijodiy merosi N.Tixonov, A.Fadeev, A.Tolstoy, S.Somova, L.M.Penkovskiy, E.S.Ognesvet, G.Obatnin, Tomi Xututnnen, L.G.Bat, S.Ayniy,

² Абдурахмон Жомий. Рисолаи кофияи Мулла Жомий. Калькутта, 1867; Вохид Табризи. Джами и мухтасар. Критический текст, пер. И примеч. А.Е Бертельса. – М., Наука, 1959; Атоуллох Хусайний. Бадоеъ-ус-саноеъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б.278; Шайх Ахмад Тарозий. Фунун ул-балога. – Тошкент: Хазиана, 1996. – Б.190; Фитрат А. Аруз хақида рисола. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б.80; Фитрат А. Адабиёт коидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма (нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Х. Болтабоев). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 161 б.; Мирзаев И.К. Лексические и морфологические-средства формирования семантики рифмы. – Тошкент: Фан, 1990. – С. 132; Ҳожааҳмедов А. Мумтоз бадийат малохати. –Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.239; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 1993. – Б.293; Мирхайдаров Х. Ўзбек поэзиясида қофия ва индивидуал услуб масаласи: Филол. фанлари номз. дисс. –Тошкент, 1972. – Б.185; Аъзамов А. Аруз. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – Б.150; Шарофиддинов Х. Ўзбек халқ мақолларида қофиянинг вазифалари ва услубий асослари: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 1985. – Б.57; Ҳайитметов Ф.А. Алишер Навоий ғазаллари қофиясида мантик урғусининг берилиши: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.24; Хамраев М.К. Основы тюркского стихосложения. –Алма-Ата:Изд-во АН Казахской ССР, 1963. – С.214; Ҳамроева О.Ж. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. доктори дисс. – Тошкент, 2022. – Б.97; Жирмунский В.М. Рифма, ее история и теория // Теория стиха. – Ленинград: Наука, 1975. – 316 с.; Тимофеев Л.И. Слова в стихе. – Москва: Советский писатель, 1987. – С. 420; Лотман Ю. Структура художественного текста. Повторяемость и смысл. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Literat/Lotman/_07.php; Гончаров Б., Звуковая организация стиха и проблемы рифмы. – Москва: Наука, 1973. – С. 275; Корш Ф.Е. Древнейший народный стих турецких племен. ЗВОРАО. 1909. Т.IX, II-III. — С.139-140.

I.Sulton, Zulfiya, M.Alaviya, M.Shayxzoda, G'.G'ulom, Oybek, Q.Muhammadiy, H.Zaripov, H.Niyoziy, M.Tursunzoda, S.Azimov, N.Karimov, S.Mamajonov, B.Umurqulov, K.Azimova, N.Namozov, D.Sharipov, H.Mirhaydarov, S.X.Boboeva³lar tomonidan o'rganilgan. Biroq shoirning qofiya san'atini qo'llash mahorati bugunga qadar alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan. Mazkur tadqiqot mavzusi qofiyaning nutqiy voqelanishi, uning badiiy-estetik vazifasini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 25-1 "O'zbek tilshunosligi: badiiy nutq tahlili, antroposentrik nazariya, etnolingvistika, korpus tilshunosligi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Hamid Olimjon dostonlarida qo'llangan qofiya san'atining lisoniy va badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tilshunoslikda qofiya san'atini o'rganishga bag'ishlangan ishlarga sharh berish, qofiyaning badiiy-estetik voqelikdagi o'rini aniqlash;

Hamid Olimjon dostonlarida qofiya san'atining lisoniy xususiyatlarini tekshirish;

qofiyani shakllantiruvchi birliklarni metafora, o'xshatish, ramz kabi lingvomadaniy hodisalarga ko'ra tasnif va tahlil qilish;

zamonaviy o'zbek she'riyatida qofiyaga adabiy an'analarning ta'sirini tekshirish, qofiyada aks etgan she'riy san'atlar tahlilini amalga oshirish;

Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning badiiy-estetik maqomini belgilash.

Tadqiqot obyekti sifatida Hamid Olimjon qalamiga mansub "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg" ertak-dostonlari hamda "Zaynab va Omon" dostonlari tanlandi.

Tadqiqot predmetini Hamid Olimjon dostonlarida qo'llangan qofiya san'atining nutqiy, badiiy-estetik xususiyatlari tashkil qiladi.

³ Azimov S. Xamid Olimjon. Xa'et va ijodining очерки: Фил.фан.номзоди.дисс. – Тошкент, 1954. – 233 б.; Azimov S. Xamid Olimjon. Xa'et va ijodi хақида очерк. – Тошкент, 1955. – 155 б.; Azimov S. Xamid Olimjon abadiyati. – Тошкент, 1967. – 219 б.; Karimov N. Xamid Olimjon poetik маҳоратининг баъзи масалалари: Фил.фан.номзоди.дисс. – Тошкент, 1962. – 197 б.; Karimov N. Xamid Olimjonning poetik маҳорати. – Тошкент: Фан, 1964. –156 б.; Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990. –106 б.; Советское общество в воспоминаниях и дневниках. Том 8. Литературная жизнь. Аннотированный библиографический указатель книг, публикаций в сборниках и журналах. – Москва-Санкт-Петербург: Нестор-История, 2017. – 706с.; Бабаева С.Х. Лексико-стилистические особенности поэзии Хамида Алимджана: Автореф. дис.канд.фил. наук. – Ташкент, 1989. – 17 с.; Зулфия. Xamid Olimjon. – Тошкент: Фан, 1979. –404 б.; Karimov N. Нафосат чашмаси. – Тошкент, 1970. – 107 б.; Намозов Н. Xamid Olimjon va адабиётлар кардошлиги. – Тошкент, 1980. – 126 б.; Мамажонов С. Шоир дунёси. – Тошкент, 1974. – 221 б.; Karimov N. Xamid Olimjon. Шоир хаёти ва ижодидан лавҳалар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1979. – 247 б.; Karimov N. G'uzallikning олмос катралари. – Тошкент, 1979. – 39 б.; Karimov N. Бахт ва шодлик куйчиси. – Тошкент, 1980. – 40 б.; Бобоева С.Х. Xamid Olimjon поэзиясининг лексик хусусиятлари. – Тошкент, 1989. – 53 б.

Tadqiqot usullari. Ishda tavsifiy, qiyosiy, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi:

tilshunoslikda she'r metrikasiga doir nazariy qarashlar negizida qofiyaning shakllanishi metafora, o'xshatish, ramz kabi lingvomadaniy hodisalar doirasida amalga oshishi ochib berilgan;

Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning shakllantiruvchi lisoniy birliklarda metafora, o'xshatish, ramz kabi lingvomadaniy hodisalarning leksik-semantik, konseptual-formal voqelanish imkoniyatlari aniqlangan;

Hamid Olimjon dostonlarida qo'llanilgan qofiya san'atiga o'zbek folklor adabiy an'analarning ta'siri tekshirilib, qofiyada ifoda topuvchi zulqofiyatayn, ichki qofiya, takror san'ati, tarse' tarzida qofiyaning radif she'riy san'atlarning o'zaro badiiy sintezlashish imkoniyati aniqlangan;

Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning sintagmatik, formal, badiiy-estetik maqomi vatan, muhabbat, sadoqat mazmunli jummalarni shakllantirishdagi lingvomadaniy ahamiyati belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda qofiya san'atining badiiy-estetik voqelikdagi o'rniga doir qarashlar tahlili asosida qofiyada metafora, o'xshatish, ramz kabi lingvomadaniy hodisalarning voqelanish imkoniyatlari, zamonaviy dostonlarda qo'llanilgan qofiya san'atiga adabiy an'analarning ta'siri, qofiyada ifoda topuvchi she'riy san'atlarning o'zaro sintezlashish imkoniyatiga oid farazlar o'zbek she'riyatini sinxron yoki diaxron ko'lamda o'rganuvchilar uchun muhim manba bo'la olishi asoslangan;

zamonaviy dostonlarda qo'llanilgan qofiya san'atining lingvistik, lingvokulturologik, lingvopoetik tahliliga asoslangan tadqiqot natijalari sohaga doir muhim ilmiy-nazariy ma'lumot berishi bilan birga til va madaniyat masalalarini o'rganuvchi ortologiya, antroposentrik tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalar bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratilishiga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tilshunoslikda qofiya san'atiga doir nazariy qarashlar, qofiyaning badiiy-estetik voqelik hamda zamonaviy dostonlardagi o'rnini yoritishga bag'ishlangan materiallar, nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, metodik jihatdan mukammalligi, oldiga qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha asoslanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, jahon tilshunosligining yangi yo'nalishlari va tahliliy usullari asosida tadqiq qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu dissertatsiya o'zbek she'riyatida qofiya san'ati va uning badiiy-estetik vazifasini o'rganishga bag'ishlangan barcha turdagi tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ishda keltirilgan faktik materiallardan matn tilshunosligi, o'zbek nutq madaniyatiga doir adabiyotlar mundarijasini mukammallashtirishda, izohli,

dialektologik lugʻatlar tuzishda, oliy oʻquv yurtlarida maxsus kurs oʻqitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning nutqiy xususiyati va badiiy-estetik vazifalariga oid nazariy qarashlardan:

tilshunoslikda sheʼr metrikasiga doir nazariy qarashlarning qiyosiy-tavsifiy tahlili asosida qofiyaning adabiy voqelikdagi badiiy-estetik oʻrni haqidagi qarashlardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA–F1–G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional soʻz yasalishi” (“Funksionalnoe slovoobrazovanie v sovremennom karakalpakskom yazike”) mavzusidagi fundamental tadqiqotda foydalanilgan (OʻzR Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 23-martdagi 17.01/178-son maʼlumotnomasi). Natijada qoraqalpoq tilida soʻz yasalishining lingvistik tabiatiga oid maʼlumotlarning mazmunan boyishiga erishilgan;

Hamid Olimjon dostonlarida qofiyani shakllantiruvchi lisoniy birliklarda metafora, oʻxshatish, ramz kabi lingvomadaniy hodisalarning leksik-semantik, konseptual-formal voqelanish imkoniyatlari aniqlashga doir xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va Oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan olib borilgan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi PZ–20170927147– “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha boʻlgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti 2022-yil 4-oktyabrdagi 01/4-2739-son maʼlumotnomasi). Natijada zamonaviy dostonlar misolida qofiyaning badiiy-estetik maqomiga mansub qarashlarning mukammallashuviga erishilgan;

Hamid Olimjon dostonlarida qoʻllanilgan qofiya sanʼatiga oʻzbek folklor adabiy anʼanalarning taʼsiri tekshirilib, qofiyada ifoda topuvchi zulqofiyatayn, ichki qofiya, takror sanʼati, tarseʼ tarzida qofiyalanish, radif sheʼriy sanʼatlarning oʻzaro badiiy sintezlashish imkoniyatiga doir maʼlumotlardan Oʻzbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining “Mahalla” teleradiokanalining “Siyrat”, “Soʻz aytgani keldi dunyoga” deb nomlangan koʻrsatuvlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining “Mahalla” teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 8-apreldagi 01/12/247-son maʼlumotnomasi). Natijada yuqori saviyali barkamol avlodni voyaga yetishtirish, yoshlar orasida til madaniyatini shakllantirish hamda zamonaviy axborot tizimida oʻzbek tilining imkoniyatlaridan foydalanish haqidagi targʻibot ishlari mazmuni mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 11 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Jumladan, Oʻzbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik

dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta, xorijiy va mahalliy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qofiya san'atining badiiy va lingvistik tadqiqi”** deb nomlangan birinchi bobida Hamid Olimjonning so'z qo'llash mahorati, qofiya san'atining lingvopoetik xususiyatlari, qofiyada aks etgan milliy-madaniy axborot hamda folklor va mumtoz adabiyot an'analari uyg'unligiga doir nazariy qarashlar muhokama etilgan.

Manbalarda H.Olimjon ijodida iboralar, umumiste'mol so'zlari, xalq maqollari, hikmatli so'zlar, iboralarga o'rin berilgani⁴ e'tirof qilinadi. Biroq shoir asarlarini lingvistik tahlil etishga doir yagona tadqiqotda (S.Boboeva⁵) lug'aviy-uslubiy, badiiy xususiyatlar o'rganilsa-da, shoirning qofiya hosil qilish imkoniyatlari to'laligicha ochib berilmagan.

H.Olimjon so'z ma'nosidan mahorat bilan foydalanadi: *Bir parcha o't bo'lib bunda kun, Paxtasiga ishlaydi har kun* (“O'zbekiston”) misralaridagi *kun* so'zi oddiy so'zlashuvga xos bo'lib, “quyosh” ma'nosini anglatga, *bir parcha o't* birikmasi quyoshning obrazli ifodasi. Yana: *Tinmay oqar daryo pishqirib, Quy ketar oyli tun bo'ylab, Soy bo'yidan, daryo tunidan, Vodiylarga hikoya so'ylab* (“Daryo kechasi”). Bunda *oyli tun* birikmasi epitet bo'lsa, daryoga ko'chirilayotgan zabon evaziga jonlantirishning intoq turi yuzaga kelgan. Shoir so'zning nominativ va definitiv ma'nosiga ham e'tiborli: *Ikki do'stga aytib sharaf-*

⁴ H.Olimjon ilk bor zamonaviy o'zbek poetik shakllarini folklor va bolalar adabiyoti bilan uyg'unlashtirgan. U 1939-1944 yillarda Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat asarlarini rus tiliga o'girish, “Alpomish” eposini matnga ko'chirish, nashr qilish va uni ilmiy tadqiq etish, o'zga tillarga tarjima qilishda tashabbuskor bo'lgan. Doston matnidagi aforizmlar, maqol va matallar, metaforik ifodalar, mubolag'a va qiyoslar misolida o'zbek tilining boyligini e'tirof etdi va: “Alpomish” eposini o'rganmay turib, o'zbek ko'hna adabiyotini tushunish, o'rganish mumkin emas”, deb yozdi. Dostonning qiymatini inkor etgan zamondosh munaqqidlarga shu orqali javob berib, dostonga Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar adabiyotining mulki deya baho berdi. Amerikalik olim D. Montgomeri H.Olimjonning o'zbek xalqi uchun og'ir kechgan davrda – qatag'on davrida yashab ijod qilgani, shunga qaramay, uning Ona-yurtiga mehri, ona tili, madaniyati va tarixiga hurmati yo'qolmaganini yozib, “Hamid Olimjonn qo'rqmay o'zbek milliy madaniyatining qahramoni deb atash mumkin”, deb yozdi. Qarang: David C. Montgomery (1975) Hamid Alimjan (1909-1944): A Soviet Uzbek Poet and Publicist, Canadian Slavonic Papers, 17:2-3, 492-509; Pogudina Y. Pamyati Xamida Alimdjana: Poety ne umirayut, oni uxodyat v vechnost. <https://nuz.uz/moi-uzbekistancy/1177116-pamyati-hamida-alimdzhana-poety-ne-umirayut-oni-uxodyat-v-vechnost.html>; Bolshaya ensiklopediya Kirilla i Mefodiya, 2006; Bolshaya sovetskaya ensiklopediya. 3-ye izdanie; O'zbek sovet ensiklopediyasi. – Toshkent, 1971-1980; Mamadalieva Z. U., Ganieva A. Y. Xamid Alimdjan i folklor / Molodoy uchyonyy. № 23 (103). Dekabr, 2015; Bagdasarova G. https://kultura.uz/view_2_r_5986.html; Zikriyoeva H. Jangovar shoir // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. Oltinchi yil nashri. 9-son, 1962; Xamid Alimdjan. http://rizoakhmad.blogspot.com/2017/06/blog-post_1.html.

⁵ Бабаева С.Лексика-стилистические особенности поэзии Хамид Алимджана: автореф.дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1989. –17 с.

shon, *Oqar edi toshqin Zarafshon Olam sari sochib yangi ong Sekin-sekin yorishardi tong* misralaridagi *tong* soʻzi sememasidagi “yangi kunning avvali” semasi nominativ belgi, potensial ahamiyatli “yangi ongning paydo boʻlishi” semasi mazkur leksemaning konnotativ semasidir. Shu asosda *tong* soʻzi orqali yangi poetik obraz hosil boʻlmoqda.

Ushbu bobda, shuningdek, qofiyaning lafzdoshlik (A.Rustamiy⁶) maqomi va lisoniy-poetik xususiyatlari yoritilgan. Jumladan, akad. A.Rustamov, prof. I.K.Mirzayev, prof. S.A.Karimov, prof. B.Umurqulov singari olimlar qofiyaning lisoniy-nutqiy imkoniyatlarini oʻrganganlar. Xususan, A.Rustamov qofiyaning eʼnot, zulqofiyatayn, tarsiʼ, tajziya,tajnis kabi turlarini lingvopoetik tahlil asosida koʻrsatib bergan⁷.

Nega qofiyani lingvistik jihatdan tekshirmaslik kerak? degan oʻrinli savolga quyidagilar javob boʻladi: **1.** Sheʼriyat uchun lisoniy bilimlar poetik matn va yangi obrazlar yuzaga kelishi uchun asosdir (V.A.Maslova, Y.S.Stepanov⁸). Bunda tilshunoslik, sheʼriy diskurs, poetik tilshunoslikning integratsiyasi sodir boʻladi (Y.Stepanov). **2.** Qofiya – nomlar oʻrtasida kontekstual “ittifoq”ni yuzaga keltiruvchi, shu bilan ular oʻrtasidagi aloqani fikriy assotsiatsiya bilan tasdiqlovchi unsur. Fonetik rezonansni tashkil qilib, bu yordamida oʻzi ishtirok etgan sheʼriy parchalarga oid bilimni – xotirani muntazam faollashtiruvchi lisoniy belgi. **3.** Qofiya dastlab lisoniy, soʻng poetik hodisa (Y.Lotman⁹). Chunki har qanday lisoniy belgi kabi qofiya ham oʻz ifoda va mazmun koʻlamiga ega¹⁰. Qofiya – sheʼriy matnning chegarasi¹¹. Qofiyada lisoniy xoslanganlik undagi: 1) xotira bilan aloqadorlik – lingvokognitiv xossalar; 2) badiiy mazmundorlik – estetik vazifa; 3) matn strukturasi shakliy-fonetik uygʻunlikni taʼminlash – ifodaviylik; 4) sheʼriy misralarni oʻzaro biriktirish, bogʻlanishli nutqda masʼullik – matn qurilishi; 5) fonetik rezonans, fonetik-metrik xoslanganlik, ohangdorlik – akustik xossalar; 6) sheʼr matni chegaralarini belgilash, misralararo mazmuniy bogʻlanish – semantik koʻlamdorlik va 7) nutqiy taʼsirchanlikka koʻmaklashish – ortologik koʻrsatkichlar¹²da kuzatiladi. Qofiya asar gʻoyasiga mos obraz yaratish, ritmik va sistemik kompozitsiyada asosiy oʻringa ega, u real voqelikdan axborot tashuvchi matn bilan zich aloqada. Sheʼriyat ritmik gʻoyani “yashirin ijtimoiy munosabat, baho hamda kontekstual poetik maʼno, ijod konsepsiyasining kondensatori” –

⁶ Rustamov A. Qofiya nima? – Toshkent. Fan, 1975. – B.10; Rustamov A. Aruz haqida suxbatlar. – Toshkent: Fan, 1972. – B. 56.

⁷ Rustamov A. Koʻrsatilgan asar. – B. 22-25.

⁸ Фатеева Н. А. Поэзия как филологический дискурс. 2-е изд. — М.: Издательский Дом ЯСК: Языки славянской культуры, 2017. — 360 с.; Лотман Ю. Структура художественного текста. Повторяемость и смысл. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Literat/Lotman/_07.php.

⁹ Yuqoridagi manba.

¹⁰ Мирзаев И.К. Из опыта перевода цикла стихотворений А.С.Пушкина “Подражания к корану” на узбекский язык. http://old.domgogolya.ru/storage/documents/readings/04/mirzaev_i_k_iz_opytov_perevoda_pushkina_na_uzbekskiy_yazyk.pdf.

¹¹ Ilgari vaqtlarda yozuv mashinkalarida bitilgan har bir satr soʻngida mashinka qoʻngʻirogʻi chalinib, matnning chegaraga yetganidan darak bergan. Shu sabab A.Axmatova qofiyani “qoʻngʻiroqli signal” deb atagan.

¹² Tursunova O. A. Poetic features of sounds in rhythm. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 5, may 2021, ISSN: 2660-5562

qofiyada mujassamlashtiradi¹³: Y.Is'hoqovga ko'ra, mumtoz adabiyotda 110 dan ortiq ma'naviy, lafziy san'atlar mavjud bo'lib, shundan 10 ga yaqini qofiya bilan aloqador¹⁴. Ammo bu har qanday she'riy matnda albatta qofiya ishtirok etishi shart, degani emas. Qadimgi yunonlar o'z she'rlarida ohangdoshlik o'yiniga ko'p ham murojaat qilmaganlar, ulardagi stopa o'lchovlarining xilma-xilligi bunga yo'l bermagan¹⁵.

I.K. Mirzayev qofiyada: uyushtiruvchilik, estetik ta'sir etish, uslubiy informativlik belgilarini ajratsa¹⁶, A.Rustamov lafzdoshlikning bir xil bo'g'in yoki tovushli so'zlarda bo'lishi, uning ta'siri bo'g'in va tovushlarning miqdoriga bog'liqligi va lafzdoshlikka xizmat qiluvchi qo'shimchalarda jamlangan ma'noviy uyg'unlik yuqori darajada bo'lishini qayd etadi¹⁷. Mas., *Bahri ochilmaydi hech, Chehrasi kulmaydi hech* ("Semurg") satrlaridagi ham bo'g'indoshlik, ham tovushdoshlikka mos *hech* radifi *ochilmaydi, kulmaydi* qofiyadoshlarining kuchli inkor ifodasidir. A.Rustamov bo'g'indoshlikka ohangdoshlik qo'shilsa, lafzdoshlik bir darajaga ortishini qayd etadi: *Biladi juda ko'p sir, Yashar yuz yil – bir asr* ("Semurg"). Mazkur *sir, asr* qofiyadosh so'zlari bo'g'indosh, ammo ohangdosh emas (ohangdoshlik, odatda, bo'g'indoshlardagi bir xil unlilar evaziga ta'minlanadi). Shunga qaramay, *sir, asr*dagi tavzi' san'ati (alliteratsiya)ning belgilari hamda epenteza¹⁸ (*asir*)ning ta'siri ostida har ikkisida ohangdoshlik vujudga kelgan.

She'riy an'analarning og'zaki ijod va folklorga sintezlashishi va aksincha, ko'hna bitiklar, reliktlarining san'atga sintezlanishi tabiiy qonuniyat hisoblanadi¹⁹. Hamid Olimjon ijodida ham qofiya tuzishda xalq dostonlari an'alariga amal

¹³ Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – М., 1977; Мукаржовский Ян. Структуральная поэтика. – М., 1996; Винокур, Г. О. О языке художественной литературы. – Москва: Высшая школа, 1991. – 448 с.

¹⁴ Исхоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 34.

¹⁵ Востоков А. Опыт о русском стихосложении // Санкт-Петербургский вестник. — С.-Петербург: Общество любителей словесности, наук и художеств, 1812. — №№ 4-6.

¹⁶ Mirzaev I.K. Ko'rsatilgan asar. – B. 7.

¹⁷ Рустамов А. Қофия нима? – Тошкент: Фан, 1976. – Б.43.

¹⁸ Эпентеза (yun. epenthesis – kiritish) – so'z ichida tovush orttirilishi.

¹⁹ Adabiyotning tasviriy san'at, haykaltaroshlik, raqs, musiqa, teatr, mehnat marosimlari va urf-odatlar (qo'shiq-ertak-raqs, qo'shiq-duo-fol, shomonlik, totemizm kabi), milliy o'yinlar bilan sinkretizmi unda vazn, ritm singari mezonlarning shakllanishiga sabab ko'rsatgan¹⁹. Ritmning zarbli musiqiy asboblar orqali oshkor ifodasi hamda u bilan amalga oshadigan jismoniy harakatlar (mimika, tana harakatlari, jestlar), musiqiy hamohanglik fonida jarayonga mos jalb etiluvchi so'zlar toifasi (mavzuviy ixtisoslashgan lisoniy birliklar) she'riyatni tug'dirgan, deya taxmin qilinadi. Manbalarda nutqning qadimgi reliktlari dastlabki nutq ko'rinishlarining musiqiy hamohanglikda psixik holatga ishora beruvchi glossolaliya (mazmun-ma'nodan yiroq g'o'ldirash) hamda exolaliya (eshitilganlarni beixtiyor takrorlash) shaklida namoyon bo'lgani uqtiriladi. Glottogenezning bu ko'rinishlari shunchaki axborot uzatish emas, miya va ongdagi psixik-dasturiy jaraënga belgi hisoblangan. Arxaik qo'shiqlarda ritm vaznni ifodalagan, ilk she'riy matnlarda esa qofiya mavjud bo'lmagan. Jahon she'riyatida muntazam alliteratsiyalar (*tavzi' san'ati*), assonanslar, ritm, vazn, fonetik takrorlar turli mezonlarga ega bo'lgan. Qadimgi yapon, xitoy, koreys, malayziyaliklarda bo'g'inlar hisobi; ugorliklar uchun urg'uga tayanuvchi qat'iy vazn; qadimgi kelt, mo'g'ul, qirg'iz, somali she'riyatida esa alliteratsiya; hindular, ayrim roman xalqlari, polineziya she'riyatida esa assonanslar ahamiyatli sanalgan. Ritm raqs va musiqa orqali yuzaga kelgan va shu asnodan o'zining nutqiy fonetik in'ikosini topa borgan. Ayrim magik marosimlarda o'qilgan matn birliklari tabulashtirish evaziga sinonimlari, metaforik ifodalar bilan almashtirilgan, oqibatda mazmunan bir xil birliklarning misrama-misra takrori yuzaga kelgan. Baura: Bowra C.M., Primitive Song. L., 1962; Byuxer K. [1923]; Meletinskiy E.M., Neklyudov S.Y., Novik E.S. Status slova i ponyatie janra v folklore. Istoricheskaya poetika. Literaturnye epoxi i tipy xudojestvennogo soznaniya. – M.: Nasledie, 1994. – S. 39-104; Sinkretizm turli shaklli ifodalarning funksional uyg'unlashuvi, birikuv. Qarang: Axmanova O.S. Slovar lingvistikeskix terminov. – M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1966.

qilinganligini ko‘plab kuzatish mumkin. Y.M. Melitinskiyga ko‘ra, folklor matnlarida shakliy farq mavjud emas. Mas., *Kokillari uning tol-tol Lablarida bitgan qora xol* (“Zaynab va Omon”) misralari “Alpomish” eposidagi shunga mos alliteratsiyali: *Kokillaring eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol*²⁰ satrlarini eslatadi, bu esa ko‘hna folklor an‘anasiga ergashishdan darak²¹. Shu kabi, *Necha manman deganlar, Ilon po‘stin yeganlar* (“Semurg”) misrasi mazmunining *ilon yog‘ini yemoq yoxud “ma‘lum holatga chidab tura olmaslik, toqat qila olmaslik”*²² ma‘nosiga muvofiq kelishi; “Tohir va Zuhra” dostonidan: *Suv kelar axta-axta, Sandig‘im temir taxta, Sendan boshqa yor qilsam, Qon yutay laxta-laxta* to‘rtligidagi so‘nggi misraning: *Bu hollarni ko‘rib xon, Yutdi laxta-laxta qon* (“Semurg”) shaklida kelishi; *Ko‘rganlar olsin darmon, Ko‘rmagan qilsin armon* misralarining o‘zbek folkloriga xos *armon-darmon* tarzida qofiyalanishi she‘riy reliktlarning modifikatsiyalangan shakli sifatida ahamiyatli. (1-jadval)

Qofiyada an‘anaviy lingvomadaniy unsurlarning badiiy-estetik ifodasi.

1-jadval

Xalq og‘zaki ijodi (XOI), jonli xalq tiliga doir obrazli ifodalar, o‘xshatish etalonlari	Misol	H.Olimjon ijodida
Kokillari tol (odatiy bayonda tol kokilli)	<i>Kokillaring eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol.</i> Alpomish	<i>Kokillari uning tol-tol Lablarida bitgan qora xol, Bir dunyoga arziguday bor</i> ²³ ... “Zaynab va Omon”
Baxti ochilmoq	<i>Bulbul baylamasin gulning raxtini, Xudo ochsin er yigitning baxtini.</i> “Yusuf va Ahmad”	<i>Baxtim ochilmadi hech, Aytganim bo‘lmadi hech</i> ²⁴ . “Semurg”
Qanoti sinmasin	<i>Uchqur bo‘lsa, hech sinmasin qanotim.</i> Yusuf va Ahmad; <i>Lochin edim, armonlaring Qayirdi qanotimni...</i> U.Azim; <i>Burgut edim, qanotimni qayirdi g‘anim.</i> Rustam G‘ani	<i>Sen otamdan ayirding, qanotimni qayirding</i> ²⁵ ... “Oyguil bilan Baxtiyor”
Gul va bulbul obrazli qiyosi	<i>Qanday sarlavha deng, umumiy qoidaga muvofiq sarlavhamni “Gul” deb qo‘ydim. “Gul” dedingmi, ketidan “Bulbul” kalimasi lop etib og‘zingga kelmasunmi.</i> A.Qodiriy, “O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas”	<i>Mening ham bir suygan gulim bor, Mening ham bir o‘z bulbulim bor</i> ²⁶ . “Zaynab va Omon”
Non sindirish etnografizmi	<i>“Nonni sindirdik, endi sen qizim bilan unashtirilding, deb aytadi u hayratda qolgan ajnabiy Iskandarga” — hikoya qiladi Maykl Vud – “Chunki o‘sha paytlar ham yigit-qizni unashtirish ramzi sifatida non sindirishgan”.</i> ²⁷	<i>Ne uchunki, u tug‘ilganda Sobirga deb non sindirilgan; Zaynab bilan Sobirni maqtab,</i> <i>Va ikovni bir-birga atab,</i> <i>Dasturxonda sindirdilar non Va fotiha ko‘tarib shu on,</i> <i>Tarqaldilar</i> ²⁸ ... “Zaynab va Omon”

²⁰ “Alpomish”. – B.31.

²¹ Hamid Olimjon ijodida xalq og‘zaki ijodi an‘analari. <http://library.ziyounet.uz/ru/book/download/81519>.

²² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.404.

²³ Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент, 1979. – Б.134.

²⁴ Hamid Olimjon. Ko‘rsatilgan asar. – B.178.

²⁵ Hamid Olimjon. Ko‘rsatilgan asar. – B.110.

²⁶ Hamid Olimjon. Ko‘rsatilgan asar. – B.165.

²⁷ Вуд Майкл (1997). По следам Александра Великого Путешествие из Греции в Азию. Калифорнийский университет Пресс. – С.256.

²⁸ Hamid Olimjon. Ko‘rsatilgan asar. – B.146-141.

V.M.Jirmunskiy, B.V.Tomashevskiy, N.T.Fedorenko she'r qurilishidagi tartib lisoniy talabdan o'sib chiqishi va u milliylikdan tashqarida betakrorlik kasb etmasligini yozadi²⁹. H.Olimjon ijodida xalq tili va olam milliy manzarasida muhrlangan timsollar, poetizmlar, poetonimlar qofiya o'rnida kelishi kuzatiladi. So'zlar va so'z birikmalari takrori, semantik-fono-sintaktik parallelizm (mumtoz she'riy san'atda *mutoqiba*) kabilar hozirgi zamon she'riy matniga arxaiklik baxsh etuvchi usullardir. Mas., *Yetti kecha, yetti kun, yetti kunduz, yetti tun* ("Semurg'") misralaridagi yetti raqami bilan ifodalangan birikmalar hojib san'atini hosil qilib, semantik bir-birini takrorlaydi: 1) *kecha-tun*, 2) *kunduz-kun*. Mazkur taftologik jumladlarda takror belgilari aynanlashtirilayotgan bo'lsa-da, badiiy-estetik jihatdan "uzoq manzil" ma'nosining yanada bo'rtirilishiga sabab tug'dirgan. Aksincha, bayt izidan keluvchi *Zo'r chinorga chiqmoqqa, Chiqib uni yiqmoqqa Hamma xezlab ko'rdilar, o'zni o'qday urdilar* – sintaktik turdagi mutoqibasi uzoq masofani anglatuvchi *Yetti*³⁰ *kecha, yetti kun, yetti kunduz, yetti tun* ifodasining motivlangan semantikasini yorqinlashtirib, matnga o'zgacha ritm baxsh etgan. Dostonning boshqa o'rinlarida uchrovchi *Bunyod yetti kun kezdi, yetti qora tun kezdi* ("Semurg'") kabi ifodalar "uzoq masofa"; *Yetti tunni uxladi, Yetti kunni uxladi* mazmunli qurilmalar esa o'zbek folkloriga xos "uzoq davr" ma'nosidagi arxaik ifodadir. Sintaktik parallelizmning *Kun botar tomon ketdi, Kun yotar tomon ketdi* ("Semurg'"); *U o'qday uchib o'tdi, Yashinday ko'chib o'tdi* ("Semurg'") kabi bo'g'indosh lafzdoshlik shakli ham qofiya ohangdorligini yanada oshiradi. Mutoqibaning qofiyada akslanishi faqat tasdiq emas, inkor shakli misolida ham sodir bo'lishi mumkin. Jumladan, *To'g'ri, — dedi, — sen yutding, Sovuq qo'limni tutding, Nima qilay, roziman, O'zidan noroziman* ("Semurg'"). Qofiyalanishning bu tarzi so'zlovchi intensiyasi, *o'zidan-o'zi norozi* implikaturasini ravshanlashtirib, misralararo ohangdorlik va semantik jilodorlikning oshishiga sharoit yaratgan.

Madaniy tamg'alangan implitsit-badiiy shakllar she'r matniga o'ziga xos ritmiklik, yaxlitlik, ritorik intensiya, fikr in'ikosining badiiy sayqallangan modelini taqdim etadi. Mas., bu paremiologik birliklarning qofiyalanishiga oid misollarda aniq ko'rinadi: *Dunyoni g'amga ko'mgan, Jafo-alamga ko'mgan* ("Semurg'"); *Parizod xo'p aldapti, Qo'rqinch yo'llarga sopti* ("Semurg'": *garchi yo'lga solmoq* iborasi "faoliyatini yaxshilamoq" (O'TFIL, 389) ma'nosida kelsa-da, *qo'rqinch* leksemasi misra semantikasiga salbiy ma'noni yuklagan); ...*alam yutib o'lsa ham, Boshingga yetajakman* ("Semurg'": yo'q qilmoq, halok qilmoq: O'TFIL, 46); *Men kuningga yarayin* ("Semurg'"); *Daraxtlarga ko'z soldi* (var. nazar solmoq, nazar tashlamoq) kabilar.

Milliy-madaniy konseptlarning verballashuvi qofiyadan anglangan "andisha", "hayo", "ma'rifat", "ilm" ma'nolarida kuzatiladi: *"Cho'ri qiz, endi menga Xotin bo'lursan" dedi. "Hashamatli saroyda Otin bo'larsan" dedi.* Yoki:

²⁹ Жирмунский В. М. Теория стиха. — Л.: Сов. писател. Ленингр. отд-ние, 1975. — 664 с.; Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. — Ленинград, 1959. — С. 69; Федоренко Н.Т. Избранные произведения. — М.: Художественная литература, 1987. — С.1024.

³⁰ Ushbu raqam nomi lotin tilidagi *septana* so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy "yetti yillik muddat" degan ma'noni bildiradi: <https://zamin.uz/jamiyat/31825-7-mujizaviy-raqammi.html>.

So 'zsiz xotin bo' laman, Go 'zal otin bo' laman misralarida xotin-otin qofiyadoshlari mazkur konseptlarni oydinlashtirgan. Shoirning o'zbek ayoliga otin obrazini etalon qilib tanlashi bejizmas: o'zbek madaniyatida otin, otinoyi, otin bibi, otincha, otinchaxon nomi ostida jamiyatda diniy bilimlarni egallagan ayollar tushunilgan; (1) eski maktablarda qizlar o'qituvchisi; din va shariat bilimdoni; 2) uyida maktab ochgan ayol; 3) ayollar o'rtasida diniy marosimlarga boshchilik qiladigan ayol; 4) har qanday o'qimishli yoki o'qituvchi ayol; 5) o'qimishli obro'li ayollarga murojaatda yoki ular to'g'risida gap borganda, ismiga qo'shib ishlatiladigan so'z: O'TIL, 155).

“Qofiyaning nutqiy-lisoniy xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobda shoir dostonlarida qo'llangan qofiyaning fonetik, shakliy, lug'aviy xususiyatlari yoritilib, qofiyada ifoda topgan metafora, o'xshatish, ramz borasidagi tahlillar berilgan.

I.V.Arnold tovush takrorini she'riyatni nasrdan farqlovchi asosiy belgilardan deb biladi³¹. Tovush takrori evfonik (ohangdosh) va metrik (o'Ichovdosh) takrorlarga bo'linadi. Qofiya bularning birinchi turiga xos bo'lib, ohangdosh takror o'zga stilistik usullar (alliteratsiya, paronimiya)ni vujudga keltiradi. Turkiy she'riyatda alliteratsiya kompozitsion, ohangdoshlik, badiiy obrazni tarkib toptiruvchi unsur, aruzda esa bu hodisa badiiy bezak, uslub hosil qiluvchi vosita. Mas.: *Boshimga bu Parizod Balolar keltirdi bot; Turar edi ko'z tutib, Har ko'zini yuz tutib* (“Semurg”); *Oppog'im deb bo'lar ekan shod, Oppog'im, deb qilar ekan yod* (“Zaynab va Omon”) kabi. A.M. Щербак Sibir va Oltoy turkiy xalqlari she'riyatida alliteratsiyaning qofiyadan ustun o'ringa ega bo'lib borayotgani sabab qofiyaning misradagi o'rnini aniqlash u qadar muhim bo'lmay qolganini aytadi (Mas., *Parizodni bergaysan, Ul ozodni bergaysan; Devni uzib o'tardi, Uzib, buzib o'tardi* “Semurg”; *Bunyod qilichi bilan, zaharli uchi bilan Devni burdalay berdi, Qilich qon yalay berdi* “Semurg”)³². Olim qofiyani har qanday tovush takrori deb biluvchi va uni alliteratsiya deya izohlovchilarni tanqid qiladi³³. V.M.Jirmunskiy ham qofiyaning o'rni bilan alliteratsiya, assonans, konsonansda kuzatilishini yozadi ((mas., *Va holbuki hozir tunu kun, O'shandadir xayoli butun* (“Zaynab va Omon”); *Qaytgan kabi to'da va to'da, So'zlasharlar har bir to'g'rida* (“Zaynab va Omon”); *Tun singari bo'g'iq va sokin O'tiradi, sirdoshi lokin Oppa-ochiq tutashar edi, Daryo kabi u toshar* edi (“Zaynab va Omon”))³⁴. Qofiyadosh so'zlarni aniqlashda, bizningcha, she'rdagi fonetik hodisalar, tovushlar takroriga emas, ularning misradagi o'rniga qarab ish ko'rish lozim. Biz bunda B.V.Tomashevskiyning har qanday ohangdosh so'z qofiya bo'lavermaydi, zotan qofiya – she'rning ritmik qurilishida o'zining aniq belgilangan o'rniga ega bo'lgan so'z³⁵, degan qarashini yoqlaymiz. Zotan, ohangdoshlik ikki jihatga ko'ra

³¹ Арнолд И.В.Стилистика современного английского языка. – С.262.

³² Холшевников В.Э.Основы стиховедения.Русское стихосложение. – Л.,:Изд-во ЛГУ,1962. – С.208.

³³ Мирзаев И. К. Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы – Ташкент: Фан, 1990. С.132.

; Щербак А.М. Соотношение аллитерации и рифмы в тюркском стихосложении // НАА – М.: АНССР 1962.


³⁴ Jirmunskiy V. M. Ko'rsatilgan manba.-B.78

³⁵ Томашевский Б.В, Стилистика и стихосложение. Курс лекций. – Л.: Учпедгиз, 1959. – С.538.

aniqlanadi: 1) ohangdoshlik misraning turli o‘rnidagi so‘zlarda sodir bo‘lib, takror fonetik xususiyatli bo‘lsa – bu alliteratsiya; 2) ohangdoshlik misraning aniq belgilangan (boshi, o‘rtasi va oxirida) o‘rnida kuzatilib, fonetik, leksik-grammatik uyg‘unlikni ifodalasa – bu qofiya.

I.V. Stebleva turkiy qofiyaning raviy bilan aloqasiga to‘xtaladi: 1) turkiyshunoslikda qofiya to‘g‘ri yozish tamoyili sifatida talqin etiladi; 2) qofiyaning tashkil etayotgan so‘z o‘zagi yoki negizi tarkibida raviyning bo‘lishi shart (mas, *O‘t bog‘lagan qanotlar, Beqanot uchgan otlar* misralaridagi *r* tovushi; *Tohir-Zuhra, Yoriltosh, Oyni uyaltirgan qosh* misralaridagi *sh* tovushi, *Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda* misralaridagi *a* tovushi; *Baxtiyor bilan Oygul, Qiz bo‘lib ochilgan gul* (“Oygul bilan Baxtiyor”) singari (mazkur nazariya talabiga ko‘ra, raviysiz qofiya vujudga kelmaydi, deb hisoblangan)). A.Rustamov o‘zak bilan o‘zak, o‘zak bilan qo‘shimcha, qo‘shimcha bilan qo‘shimcha orasida takrorlanuvchi yangroq tovush raviy bo‘lishini, o‘zbek tilidagi barcha undoshlar va *o, u, o* unilari raviy bo‘lib kelishini aytadi³⁶.

Qofiya va sintagma. Sintagmalararo munosabatni yo‘nalishiga qarab vertikal va gorizontal turga bo‘lish maqsadga muvofiq. Mas., *Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda, Ko‘p ertak eshitgandim, So‘ylab berardi buvim* (“Oygul bilan Baxtiyor”) misralari jami 4 sintagmadan iborat yaxlit mazmunli gapni tashkil etmoqda:



Agar jumla inversiyadan xoli bayonda berilsa, u *Bolalik kunlarimda, uyqusiz tunlarimda ko‘p ertak eshitgandim (buvim so‘zlab berardi)* shakliga ko‘chadi va bunda uyushgan hollardan bitta asosiysi – *bolalik kunlarimda* sintagmasini aniqlashtirib kelayotgan *uyqusiz tunlarimda* hamda *so‘zlab berardi buvim* predikat sintagmalari iyerarxik quyi maqomga tushadi. Ya’ni *Bolalik kunlarimda* va *ko‘p ertak eshitgandim* sintagmalari gorizontal, *uyqusiz tunlarimda, So‘ylab berardi buvim* sintagmalari esa vertikal yo‘nalishli sintagmalar sanaladi. Bunda misralardagi *kunlarimda-tunlarimda* va *eshitgandim-buvim* qofiyalari o‘zlari qatnashgan sintagmalarning vertikal-quyi maqomi, shuningdek, to‘qima tabiatini predikativ aloqali asosiy ikki: *bolalik kunlarimda | ko‘p ertak eshitgandim* sintagmalariga bog‘laydi. Bunda 1- va 3-sintagmalarga 2- va 4-sintagmaning bo‘lish-bo‘lmasligi ahamiyatsiz hamda asosiy sintagmalar (1-3) 2- va 4-sintagmalarning bo‘lishini zinhor taqozo etmaydi, shuningdek, ularni inkor etmaydi ham. Ya’ni 2- va 4-sintagmalar axborotning ko‘lamdor bo‘lishi, shu kabi, 1- va 3-sintagma mazmunini to‘ldirishga, aniqlashtirishga xizmat qilgan; 1- va 2-sintagma o‘rtasida grammatik va mazmuniy aloqadorlik yo‘q, biroq *kunlarimda-tunlarimda* va *eshitgandim-buvim* qofiyadosh so‘zlari 2-sintagmaning

³⁶ Rustamov A. Ko‘rsatilgan asar. – B. 11.

1-, 4-sintagmaning 3-sintagma mazmuniy asosiga birikuvini ta'minlagani uchun ham, ular orasida sintagmalararo yaxlit sintaktik-mazmuniy munosabat yuzaga chiqqan.

Ba'zida matn muallifi gap qurilishi va umuman, tildagi jumla tuzish qoidalariga emas, balki sintagmalar asosida she'riy matn ritmikasin ta'minlashga e'tibor qaratadi: *Xon qiziga xaridor, Parizod husniga zor Bo'lganlarga baxt kuldi*. Bunda sintagma har ikki misrani uyg'un birlashtiradi, bir nafasda ifoda etiluvchi ushbu fonetik bo'lakka birikkan misralarning ayrim ohangdosh so'zlari o'z jarangdorligini yo'qotadi. Ya'ni so'z sintagmaning tarkibiga kirishi bilan o'zining ma'no anglatish sifatini o'zgartiradi hamda mavjud ma'no tarkibi bilan sintagmaning umumiy mazmuniga singadi. Mas., *Xon qiziga xaridor / Parizod husniga zor Bo'lganlarga* misralarida asosiy qofiyadoshlar – *xaridor* va *zor* so'zlaridir. Bunda *zor* so'zi "mushtoq" ma'nosini anglatga, *bo'lganlarga* bo'lagiga birikib esa sifatdosh oborotli to'ldiruvchiga aylanmoqda. *Zor bo'lmoq* qurilmasida yetakchi bo'lak aslida *zor* so'zidir, ammo shaxs belgisini ifodalash bilan u endi sifatdosh shaklli birikmaning tarkibiga kirmoqda. Sintagmada urg'u *zor* so'ziga emas, aynan *bo'lganlarga* qismiga tushayotganligi *zor* leksemasining semantik ta'sirini kamaytirmoqda. Qofiyadosh so'zlar ohangdorligining susayishi va shu orqali ikkinchi misraga uyg'un o'tish imkonining mavjudligi inversiyali parchaning nasriy bayonga mos talaffuzni qabul qilishiga olib keladi. Bunda 1- va 2-qofiyadosh *xaridor, zor* so'zlaridagi *zor* so'zi *bo'lganlarga* bo'lagi bilan sintagmatik yaxlitlik hosil qilganidan, *Xon qiziga xaridor / Parizod husniga zor Bo'lganlarga / baxt kuldi/ Birgalashib taxt kuldi/* tarzidagi evfonik holat paydo bo'ladi. Bu she'riy qonuniyat bo'lib, gap tartibiga amal qilmaslik nasriy bayondan farqli, nazmda teskari samarani keltirib chiqaradi, ya'ni poetik fikrning jarangdorligi va emotsional ta'siri kuchayadi. Natijada she'r ritmining izchilligi yuzaga chiqadi.

Satrlararo ko'chirish – nazmiy bayonga xos raso metrik taqsimlanish, monoton qoliplarni buzib, uni so'zlashuv uslubiga yaqinlashtirish, tagma'no va adresant hayajonini yanada bo'rttirish usullaridan biri³⁷. I. Mirzayev she'riy misrani ko'chirish – misralarni deformatsiyalash amalini enjambement termini bilan atab ushbu turlarini qayd etadi³⁸: 1. Misrani to'laligicha qamragan jumla ikkinchi satrning boshlang'ich o'rnida yakunlansa, unda – bu **rejet** ("tashlash"): *Benomus qiz, ayt to'g'risini, Baxti qora! El nomusini Orsizlarcha poymol etganda, Zarracha es bormidi sanda?* 2. Misra oxirida boshlangan jumla ikkinchi satrni to'laligicha qamrasa – **contre-rejet** ("ustidan tashlash"): *Ro'parada turgan qog'ozni Parchaladi. U endi bu bor Yozmaslikka ayladi qaror.* 3. Misra oxirida boshlangan jumla keyingi satrning boshida yakuniga yetkazilsa, bu **double-rejet** ("ikki hissa sakrash"): *Jonim opa, to'xtagil" — dedi — Yalinaman, buncha tutashma, Yalinaman, bu qadar toshma.* Shoir dostonlarida misralararo bo'linishning rejet + contre-rejet aralash tipli shakllari ham uchraydi: *Yarim*

³⁷ Мирзаев И. К. Структурно-функциональная характеристика стихового переноса (энжамбемента) в современной узбекской поэзии // Советская тюркология. № 1. – Баку, 1990. – С.114.

³⁸ Mirzayev I. K. Ko'rsatilgan asar.

karaxt, mudrar, yarim och; Usti-boshi yirtiq-yalang'och Kun kechirar, ishlar tinmayin, Qayg'u to'la ovozi mayin ("Zaynab va Omon"). Ammo "Oygul bilan Baxtiyor" dostonida enjambement kuzatilmaydi: nazarimizda, ertaknamo ruh, xalqona ohang tufayli sintagmatik ko'chirishga ehtiyoj bo'lmagan, "Semurg'"dagi lirizm, poetik pafos esa bu amalni tabiiy keltirib chiqargan bo'lishi mumkin.

Ushbu faslda yana H.Olimjon dostonlarida qo'llanilgan ayrim qofiya so'zlarining grammatik jihatlariga to'xtalib o'tildi. Mas., *Har yoqdan yelaberib, El chuvab kelaberib, Million odam to'plandi*. ("Oygul bilan Baxtiyor") Bunda *chuvab* so'zining ma'nosi bir qadar mavhum qolgan bo'lib, tilda *chuvalib* so'zining qisqargan shakli ma'lum³⁹. Demak, *Har yoqdan yelaberib, El chuvab kelaberib, Million odam to'plandi* parchasi umumiy ma'noda "sudralib, va nihoyat son-sanoqsiz odam to'plandi" mazmunini ifodalamoqda. Shoirning *chuvalib* so'zini eski o'zbek tilidagi *chuvab* shaklida berishi esa hozirgi o'zbek tiliga nisbatan novatorlikdir. Shu kabi, *kuchini, yiqitarmiz* so'zlarining *kuchin, yiqarmiz* shakllari, *gurlab- gurillab; cho'zala-cho'zilib, nechun-kuchun, ekanin-tanin, g'uborin-zorin, yoshin-quyoshin* kabi qofiyadosh so'zlar; misralarda hijo mosligi, jarangli qofiyadoshlikni uyushtirish maqsadida so'zlarni qisqartib qo'llash ham H.Olimjonning individual uslubiga xos: *Odamgar(chi)lik qiz uchun ham qarz* ("Zaynab va Omon"); *So'ngra o'zing push(ay)mon bo'lursan* ("Zaynab va Omon").

Qofiyada fe'l vazifadosh shakllarining o'zgarib kelishi ham matnga davr ruhini bag'ishlash, alohida poetik ruh bag'ishlash maqsadida sodir bo'ladi: 1) *Daryolar qurur ekan, Baliqlar churur ekan*; 2) *Jaranglaydi chalg'usi tobda* ("Zaynab va Omon"); 3) *Tarqalgandi misoli tumon* ("Zaynab va Omon"); 4) *Kalavasi chuvoldi* ("Semurg'"). Ba'zi qofiyadosh so'zlarning o'zagi tarkiban o'zgartirib beriladi: 1) *Qurib churigan edi*; 2) *Churib ketar deb edim*. Garchi uzual noto'g'ri hisoblansa-da, morfologik bu norasolik shoir idiolektida o'ziga xos mutanosib holat. Zero, *churimoq* fe'lining turli so'zshakllari muallif dostonlarida tez-tez uchraydi. Yana misol: *Ikki ko'zning qorachug'ida, Butun olam topmishdi makon. Ikki qalbning qizg'in cho'g'ida...* ("Zaynab va Omon") Bunda: 1) *qorachiq* so'zining so'nggi bo'g'ini chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh *q* tovushi bilan tugaydi. Ammo u egalik qo'shimchasi ta'sirida chuqur til orqa undoshi, sirg'aluvchi, jarangli *g'* tovushiga almashadi va o'zidan oldin kelayotgan *i* unlisining talaffuz jihatlarini o'ziga moslashtiradi. So'z oxiridagi *g'* tovushidan oldin kelgan *i* unlisi kamdan kam hollarda o'zining fonetik turg'unligini saqlaydi va mazkur parchadagi *qorachug'* misoli bunga isbot.

³⁹ O'TILda chuvalmoqning chuvalanmoq, chuvalashmoq shakllari keltirilib, uning asos shakli chuvamoqdir va u ko'chma ma'noda "aralash quralash bo'lmoq, qorishmoq" mazmuniga ega. Biroq bu izoh shoir iste'molidagi *chuvab* so'zining asl ma'nosini oydinlashtirish uchun yetarli emas. Ushbu so'z O'TEL ham uchramaydi, aksincha, o'zagi yaqinligini inobatga olib uning asl ma'nosini chuvalchaq so'zining etimologiyasidan qidirdik. Ya'ni: CHUVOLCHAH "yer ostida yashaydigan, yomg'irdan keyin yer ustiga chiqib sudralib yuradigan uzunchoq qoramtir-g'izg'ish qurt". Bu so'z asli eski o'zbek tilida "sudra" ma'nosini anglatgan chuba fe'lining "o'zlik" ma'nosini ifodalovchi -l qo'shimchasi qo'shilgan shaklidan sifat yasovchi -chaq qo'shimchasi bilan yasalgan; ma'no taraqqiyoti natijasida otga ko'chgan; keyinchalik b undoshi v undoshiga, ikkinchi bo'g'indagi a unlisi v undoshining ta'siri bilan â unlisiga, uchinchi bo'g'indagi a unlisi ä unlisiga almashgan: (chuba + l = chubal) + chaq. Aynan bo'ladiki, *chuv(b)a* so'zi "sudra" ma'nosini berar ekan.

2) Odatda cho‘g‘ qizg‘ish rangda bo‘ladi, qizg‘in emas. Shubhasiz, shoirning uch misra o‘rtasida alliteratsiyani yuzaga keltirish va *ch, n, sh, z, g‘* tovushlari o‘rtasida undoshlikni ta‘minlash maqsadi *qizg‘ish* so‘zini *qizg‘in* tarzida qo‘llashga sabab tug‘dirgan. Shoir bu yerda o‘ziga xos so‘z o‘yinini qo‘llagan bo‘lishi ham mumkin: *ikki qalbning qizg‘in cho‘g‘i* iborasi “sevgining alanga olishi” ma‘nosini beradi, bunda rang-tus ifodalovchi *qizg‘ish* leksemasiga mutlaqo o‘rin yo‘q (solishtiramiz: *Ikki ko‘zning qorachug‘ida* va *Ikki qalbning qizg‘in cho‘g‘ida* misralaridagi qofiyadoshlik birgina *qizg‘ish* so‘zidagi *sh* tovushi evaziga barbod bo‘lishi mumkin). Biroq *cho‘g‘* “qizg‘in” bo‘la olmagan kabi, shoir *qizg‘in* so‘zi ostida *qizigan* so‘zini nazarda tutgan bo‘lishi ham mumkin.

Qofiyada sheva unsurlari. H.Olimjon sheva unsurlarini shundayicha keltirmay, o‘ziga xos poetik bo‘yoqdorlik bilan qo‘llaydi: *Qiz berganni qarg‘ishlab* (“Semurg‘”). *Qarg‘amoq – qarg‘ishlamoq*: O‘TILda bu shakl *shv.* pometasi bilan berilgan bo‘lib, adabiy tildagi *qarg‘amoq* shakliga zid qo‘yilgan (O‘TIL, 256). Bu yerda *qarg‘ishlamoq* – poetik so‘z, garchi adabiy tilda ham, shevada ham uning *qarg‘amoq* shakli ma‘lum. *Qarg‘ishlamoq*ni shu holicha sheva deb olinsa, “O‘zbek tilining morfem lug‘ati”ga mos xulosa bergan bo‘lamiz⁴⁰. Demak, *qarg‘ishlamoq* shoirning nutqqa poetik ruh beruvchi topilmasi, lingvistik jihatdan esa morfologik dialektizm hisoblanadi.

Kechir, Zaynab so‘zlolmas tilim, Kechir, Zaynab, chidolmas dilim misolidagi *chidolmas* so‘zini bir qarashda *so‘zlolmas* qofiyasiga ohangdoshlik sababidan qo‘llangan shakl deb qabul qilish mumkin. Vaholanki, *so‘zlolmas* va *chidolmas* so‘zlari qipchoq shevasiga xos fonetik dialektizmdir va ularning shu tarzda keltirishi matnni xalq tiliga yaqinlashtirish maqsadiga to‘la mos keladi. Bu kabi fonetik dialektizmlar yana: *Xufton yotib, azonda turar, Erta-yu kech eshik shipirar* (“Zaynab va Omon”); *O‘lib ketar deb edim, Churib ketar deb edim* (“Semurg‘”) kabi misollarda uchraydi.

A.A.Petrovaga ko‘ra, folklor matnlarida qofiya: 1) og‘zaki shaklda voqelanishi, 2) talaffuzda lahjaviy o‘ziga xosligi, 3) qofiya mezonlarining konsonans, assonans, folklorga xos noaniqligi, 4) misralar chegarasining noaniqligi; 5) qofiya ma‘nosining bo‘rttirilishi; 6) tipik folklor she‘riyatining unsuri ekani bilan ajralib turadi⁴¹. Bizningcha, bu tasnifning 2-, 3-, 5- va 6-bandlarigina ilmiy voqelikka mos.

Mazkur bobda, shuningdek, shoirning arxaik unsurlar (*ul, bul, -ur*), kitobiy (*poyandoz-sernoz, tun-maftun, osuda-qalbida* va b.) va umumiste‘mol so‘zlar (*tomonda-zamonda, ko‘rarman-yurarman, xon-jon* va b.)dan qofiya o‘rnida foydalanishi mahorati tahlillar misolida yoritib berildi.

⁴⁰ Lug‘atda berilgani kabi, *qarg‘ish* – fe‘l turkumidagi so‘z bo‘lib, O‘TELda ham uning etimologiyasi qadimiy turkiy tilga nisbat berilgan holda oydinlashtirilgan. Ya‘ni “la‘natla” ma‘nosidagi *qarg‘y + ysh = qarg‘yish > qarg‘yish > qarg‘ish*. Qarang: Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.

⁴¹ Петрова А. А. Фолклорная рифма как прием: синтактика, семантика, прагматика: Автореф. дисс. канд. фил. наук. – М., 2006. – С.18.

Qofiyada shakl va ma'no munosabati. Variant soʻzlar. Sinonimlar, odatda, ohangdosh boʻlavermaydi. Mas.: *taqdir-tole, dalil-asos, saviya-daraja, qismat-taqdir, izoh-sharh, dongdor-mashhur, erkin-hur, shohid-guvoh, begona-yot, sevgi-muhabbat, sezgi-tuygʻu, tortiq-hadya, madad-yordam, oqibat-natija, sabab-bahona* va boshqa soʻzlarni qofiyadosh sifatida ishlatib boʻlmaydi. Ehtimol, shuning uchun sheʼriyatda sinonimlar /antonimlar, paronimlar, omonimlar/qofiyalangan hollar kam. Lekin bir qator sinonimlar mavjudki, ular ohangdoshligi bilan boshqa sinonimlardan farqlanadi va ularni bevosita qofiyalash mumkin. Bu vaziyatda shoir dostonlarida qoʻllangan qofiya sinonimik jihatdan quyidagi paradigmalarni hosil qilishini qayd etish mumkin⁴²:

dil	botir	gʻam	yorqin	toabad	afgʻon	agar	tutqunlik	boshqacha	tasanno
<i>koʻngil</i>	<i>bahodir</i>	<i>alam</i>	<i>oydin</i>	<i>ilalabad</i>	<i>figʻon</i>	<i>magar</i>	<i>qullik</i>	<i>oʻzgacha</i>	<i>sallamno</i>
								<i>boʻlakcha</i>	
								<i>ayricha</i>	

Shuningdek, shoir dostonlarida kam boʻlsa-da antonim (*faryod-shod, vafo-jafo, roziman-noroziman, boʻston-goʻriston*), okkazional (*oʻrmonzor-oʻrmonlik*), paronim (*zulm-zolim, xirs-hirs*) soʻzlar qofiya oʻrnida keladi. Mas., *Qizning oldida bu xirs Koʻrsatib yovvoyi hirs* (“Oygul bilan Baxtiyor”) misolida *xirs*⁴³ soʻzi *hirs* qofiyadoshi koʻmagida soʻz oʻyiniga sabab tugʻdirgan.

Tadqiqotimiz manbalaridan biri boʻlgan “Oygul bilan Baxtiyor” asari qofiyada oʻz va oʻzlashgan qatlam unsurlarini aniqlashga koʻra tekshirilganda, 989 misradan iborat boʻlib, unda 793 ta oʻzbekcha va turkiycha, 88 ta fors-tojikcha hamda 21 ta arabcha soʻz qofiyada kelgani aniqlandi. Sheʼriy matnning 87 misrasi esa qofiyasiz kelgan. Asarning umumiy qofiyalanish manzarasi turlicha boʻlib, baʼzi bandlar ichki qofiya, ayrimlari odatiy tarzda (misra oxirida) qofiyalanib kelgan. Tahlilda qofiyalanishning <aabb>, <abab> shakllari qayd etildi. Hamid Olimjon dostonlarida qofiya oʻrnida qoʻllanilgan soʻzlar oʻz toifasiga koʻra: sof turkiycha, arabcha, fors-tojikcha soʻzlardan iborat. Jumladan, *Parizod* (f. – paridan tugʻilgan: OʻTIL , 223), *ozod* (f. – erkin, hur; asoratdan qutulgan; gʻam-tashvishdan xoli; oliyjanob, saxovatli: OʻTIL, 95); *ovoza* (f. – ashula, kuy; shovqin-suron; duv-duv gap, mish-mish, dovruq: OʻTIL, 80); *xaridor* (t. – xaridan +or soʻzidan “sotib oluvchi”: OʻTEL , 236), *bozor* (f. – bozor, savdo rastasi: OʻTIL, 298) soʻzlari fors-tojikcha soʻzlar boʻlib, umumiy miqdorda shoir qalamiga mansub dostonlarda qofiyaning fors-tojikcha leksika orqali ifodalanishi ham ancha faolligi kuzatiladi.

H.Olimjon dostonlarida metaforik qofiya, oʻxshatish, ramz. Metafora har qanday obrazning paydo boʻlish asosidir. Inson ichki olami talqinida metafora noreal, bevosita kuzatuvda berilmagan olamlarning oʻziga xos ramziy tiliga

⁴² Misollar “Oʻzbek tilining soʻzlar darajalanishi oʻquv lugʻati” (Bobojonov Sh, Islomov I.)dan olindi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

⁴³ Tojikcha “ayiq” maʼnosida.

aylanadi⁴⁴. Badiiy matn negizida ochila boruvchi obrazda metafora orqali ma'lumotlarning kodlashtirib berilgan, jamiyat oldida oshkor etilishi mumkin bo'lmagan yoxud uning (jamiyatning) muayyan ijtimoiy-axloqiy, etik-estetik va h. k. taraqqiyot darajasi bundayin bilimlarni qabul qilishga tayyor bo'lmagan bosqichida shu kabi bilimlarning mavjudligiga ishora berish sharti yotadi⁴⁵. Qofiyada keluvchi metaforada birinchidan, istioraviy so'z o'xshagan narsaga ko'ra obraz bo'lib kelsa, ikkinchidan, shu obyektни badiiy bo'yoqdorlik jihatidan tasvirlab keladi. Mas., *Sening bag'ring tosh emish, Ko'zlaring beyosh emish* ("Semurg") to'rtligidagi ichki qofiya o'rnidagi *bag'ri tosh* iborasining semantik isboti keyingi misrada (ko'zlari) *beyosh* orqali tasdiqlangan. Yoki yana: *Mening ham bir suygan gulim bor, Mening ham bir o'z bulbulim bor* ("Zaynab va Omon"). Alliteratsiyada faol ishtirok etayotgan *gul-bulbul* pretsedent ohangdosh juftligi o'zbek adabiyotida an'anaviy obraz hisoblanib, shoir ijodida bu fenomenga⁴⁶ murojaatlar ancha ko'p: *Chiroyiga rang beradi gul; Bunda qizga sevgi darsini O'qitadi eng avval bulbul*.

B.Umurqulov shoir ijodida uchrovchi *o't* so'zining "muhabbat" ma'nosida faol ekanini, lekin biror poetik obraz yaratmasligini⁴⁷ ta'kidlasa⁴⁸, bundan farqli, N.Karimov *o't* leksemasini shoir ijodida obraz hosil qiluvchi unsur sifatida ta'riflaydi⁴⁹.

O't metaforasi "muhabbat" ma'nosida kelsa-da, shoir *o't* so'zining semantik jilvasidan quyidagi tarzda foydalanadi: 1) o'z ma'nosida: *Maydonlarga o't yoqdi* ("Oyguil bilan Baxtiyor"); 2) ishq-muhabbat: *Tanasini qurshab o't* ("Oyguil bilan Baxtiyor"); 3) hijron, ayriliq azobi: *O'z o'tiga o'rtanib, Yurib qizni axtardi* ("Oyguil bilan Baxtiyor"); 4) o'z-o'zidan, atrofida kechayotgan voqelikdan ko'ngil to'lmaslik, norizolik: *Xon o'rtandi tobora. O't ichida baqirdi; Qizni qaydan yaratdim? O'zimni o'tga otdim* ("Semurg"); 5) g'ayrat, shijoat, favqulodda mo'jizaviy kuch: *O't bog'lagan qanotlar, Beqanot uchgan otlar* ("Oyguil bilan

⁴⁴ Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. док-ри дисс. – Самарқанд, 2020. –129 б.

⁴⁵ Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. док-ри дисс. – Самарқанд, 2020; Кузминская С.И. Особенности функционирования метафоры в современном эзотерическом тексте. Грани/агни-аге/нет.

⁴⁶ Shoirning o'zbek mumtoz adabiyotining an'analaridan unumli foydalanganini Ahmad Tabibiyda kelgan *bulbul* radifli g'azali, shu kabi "Alpomish" dostonida kelgan: *Qultoy: Oy Barchinim yor-yor, Gul Barchinim yor-yor... Barchin: Bulbul qo'nar to'qayning Jiydasina yor-yor* parchasida ham gul – ramziy ma'noda mahbuba (Barchin)ni, bulbul (Hakimbek/Alpomish) esa mahbubni anglatgan. Bu ikki timsol ishq-muhabbatning sharqona etik-estetik idealidir.

⁴⁷ *O't* leksemasi haqida B.Umurqulovning fikrlariga hamohang tarzda mana bu misolga e'tibor bersak: *Shuncha-shuncha otashlar eshigida so'nadi. Otashdan kul unadi* ("Semurg"). Qofiya o'rnida keluvchi *otash* metaforasida predmetlik ma'nosi ustun, obraz emas, biroq uning semantik derivatsiyasini keltirib chiqargan *Otashdan kul unadi* misralari *otash* semantikasidan "oshiq" ma'nosini oson ajratishga sharoit yaratadi. Bunda *otash* so'zining yolg'iz o'zi emas, balki qofiya uyushtirayotgan tizimli metaforik konstruksiyagina obrazli manzaraning gavdalanishiga sabab tug'dirmoqda.

⁴⁸ Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990. – Б.106.

⁴⁹ N.Karimov bu so'zning H.Olimjon she'rlarida obraz darajasiga o'sib borishi uchun naq o'n yil talab qilinganini yozadi va o'rni bilan shoirning ushbu leksema ishtirokidagi g'aliz, badiiy mukammallikdan yiroq she'rlar bitganini ham ochiq tanqid qiladi: "Zero,ki, "olov sochish" yoxud "o't qo'yish" yurakka yot bo'lgan narsani daf' etish, uni kuydirish va yo'q qilish edi. H.Olimjonning dastlabki she'rlarida o'z o'rnini topolmagan so'z va obraz shoir ijodining evolyusiyasi bilan shakllanib, mukammallashib bordi", deb yozadi olim. Karimov N. Ko'rsatilgan asar.

Baxtiyor”); 6) affekt turi, kuchli g‘azablanish: *Zolim xon xo‘p tutoqdi, G‘azab o‘tida oqdi; Qiz undan jirkanardi, Ichi o‘tda yonardi* (“Oygul bilan Baxtiyor”); 7) achinish, nadomat: *Va qulning yuragini O‘t bo‘lib yoqib ketdi*; 8) uyat hissi: *Qovog‘ini uyib xon, Uyatiga kuyib xon*; 9) chorasizlik azobi: *Qalbini bir og‘ir g‘ash O‘rtardi misli otash* (“Oygul bilan Baxtiyor”); 10) affekt turi, jahl: *O‘t tashlading nega joningga? Tutashgusi qalbinga otash, Jang qilgusi otash bilan g‘ash* (“Zaynab va Omon”); 11) jang, yurish, fath: *Jambilga o‘t ochamiz* (“Oygul bilan Baxtiyor”); 12) hayot mashaqqatlari: *Bu xonlardan kuydik ko‘p* (“Oygul bilan Baxtiyor”) va b. Shuningdek, *qon* leksemali qofiyadoshlik ham “Oygul bilan Baxtiyor” dostonida 19 marta (shu qatorda, *qon+xo‘r* yasama so‘zi, *qoni qaynamoq, ko‘ziga qon to‘lmoq* iboralari tarkibida) uchraydi⁵⁰. Metaforik qofiya yordamida shoir tegishli tushunchani ulug‘lash, ideallashtirib ko‘rsatishi yoki tamomila inkor etishi mumkin. Mas., *Hammasi bor, hammasi ma‘mur... Bunda yerga oydan tushgan nur... Novdalarda tug‘ilgan kurtak Har kun to‘qir yangi bir ertak*⁵¹.

Shoir dostonlarida qofiya lingvomadaniy o‘xshatish etalon vajidan shakllangan bo‘ladi: *Har vodiyni bir-bir izladim, Yetim qo‘zi yanglig‘ bo‘zladim*. Garchi bunda yetim qo‘zi yetim bolaga zid qo‘yilsa-da, yetimlik o‘zbek xalqi uchun birdek hamdardlik bilan qabul qilinadi⁵² Xuddi shunday: *Yor axtarib boqqanda qiyg‘och, Qoshi bo‘lib xuddi qaldirg‘och* misralaridagi qofiya o‘rnida kelayotgan *qiyg‘och* (“nafis qiya tushgan” (qosh haqida)⁵³ va *qaldirg‘och* so‘zlari ham madaniy etalonlardir.

“Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning badiiy-estetik vazifasi” deb nomlangan uchinchi bobda qofiyaning badiiy vazifasi, qofiyada pragmatik ta‘sir va she‘riy san‘atlarning ifodasi masalalariga to‘xtalangan. Xususan, H.Olimjon dostonlarida zulqofiyatayn /qo‘sh qofiya/(El aytib yig‘lar edi. Sel qaytib yig‘lar edi “Oygul bilan Baxtiyor”); ichki qofiya (*Oftob yiqar qayg‘u tog‘ini Oylar yoqar tun chirog‘ini* “Zaynab va Omon”); qofiyada takror san‘ati (Oppog‘im, deb bo‘lar ekan shod Oppog‘im, deb qilar ekan yod.“Zaynab va Omon”); tarse‘ shaklda qofiyalanish /misralardagi hamma so‘zlarning qofiyalanishi/ (Baxtim ochilmadi hech, Aytganim bo‘lmadi hech “Semurg”); qofiyadosh so‘zlardan keyin so‘z

⁵⁰ o‘zbek tilida urg‘uli va urg‘usiz o unlisi so‘zning barcha bo‘g‘inlarida kelishi mumkin, ammo har ikki holda ham o unlisining talaffuzida keskin farq kuzatilmaydi, bundan o unlisining ohangdorlik darajasi yetarlicha yuqori ekanini anglash mumkin. Mas., *Men Omonga ko‘ngil beruvdim, To o‘lguncha o‘shani devdim. Sevganimni bilib Omonni, Oqizdilar bag‘rimdan qonni* Rajabov N.N. Foneticheskie osobennosti bezudarnyx glasnyh v uzbekskom yazыke <https://cyberleninka.ru/article/n/foneticheskie-osobennosti-bezudarnyh-glasnyh-v-uzbekskom-yazyke>.

⁵¹ 1.Ma‘mur – arabcha “topshiriq, buyruq oluvchi, tobe” va “mansabdor, boshliq” ma‘nolarini (O‘TIL, 564) o‘zaro zidlovchi enantiosemitik so‘z hisoblanadi. Biroq bu so‘zning ikkinchi ma‘nosi arabcha “ishlangan, ishlov berilgan” tushunchasini anglatadi va u matnda “obod va farovon, bekamu ko‘st; to‘kin” talqinida keladi (O‘TIL, 564). She‘rda lirik qahramonning baxtdan masrurlik hissi kuylanmoqda va endi *ma‘mur* so‘zining izohida biz ikkinchi sharhga tayanamiz. Natijada *ma‘mur* va *nur* qofiyalarining “yerdagi baxt” ma‘nosi anglashiladi. 2.Bu baytda metaforaning personifikatsiya turi o‘z ifodasini topgan bo‘lib, daraxtning kurtak yozish jarayoni tug‘ilishga o‘xshatiladi. *Kurtak* so‘zi, tabiiyki, *ertak* so‘zi bilan ohangdoshlik hosil qiladi.

⁵² Jumladan, “*Onam*” *teyu kecha kunduz yig‘layurlar, Orib qolg‘on bo‘talardek bo‘zlayurlar, Yetim qolg‘on qo‘zi yanglig‘ mangroyurlar, Nolishishig‘a tosh erib suv bo‘ldi, ko‘rung*. Ahmad Yassaviy

⁵³ O‘TIL. – B.289.

takrorlash-radiflash (*Qalbi jizillab qoldi, Qizardi begap qoldi*⁵⁴ “Oyguil bilan Baxtiyor”) hollari tahlil qilingan.

Qofiyada tovushlarning ma’lum intervalda joylashishi, shu orqali cho‘ziq-qisqa hijolar o‘rtasidagi muvozanatni ohangdoshlik nuqtayi nazaridan ta’minlashi muhim. Mas., 1. *Sekin kelib yotdi-yu faqat, Kiprigini yuma olmadi*. 3. *O‘ylay-o‘ylay toq bo‘ldi toqat, Endi sira yurak qolmadi* (“Zaynab va Omon”) to‘rtligida 1-3-misralar yoki: 1. *Tong singidi oppoq oqarib*, 2. *Zaynab turib, dalaga borib*, 3. *Butun gapni unutgan bo‘ldi*, 4. *Siqiq qalbi havoga to‘ldi* (“Zaynab va Omon”) to‘rtligidagi 1-2 va 3-4-misralarning; 1. *Ko‘klam kabi ko‘kargan jonlar*, 2. *Sho‘x yigitlar, qizlar, juvonlar* 3. *Bo‘ldi qizning dardiga chora*, 4. *Xurram bo‘lib u bora-bora* to‘rtligidagi 1-2, 3-4-misralar o‘zaro qofiyali saj’ (mutarraf’ saj’)ni tashkil etib, bunda qofiya ritmning musiqiylik tomonini bo‘rttirib, uning bo‘laklarini chegaralab turganini kuzatish mumkin. Shu kabi, shoir mahorati: *Anor xola oilasi ham, Kolxoz sari qo‘ydilar qadam, Va bo‘y yetgan Zaynab ham ozod, Erkin endi boshladi hayot* (“Zaynab va Omon”) misralaridagi vazndosh saj’ (mutavozin saj’) va qofiyali saj’ (mutarraf’ saj’) misolida namoyon bo‘lgan.

Qofiya misra ritmining musiqiyliги zulqofiyatayin (*So‘ngra uni savdoyi derlar, Bir tagsizning gadoyi derlar* (“Zaynab va Omon”));, juftqofiya (*Tun singari bo‘g‘iq va sokin O‘tiradi, sirdoshi lokin* (“Zaynab va Omon”) evaziga ham ta’minlanadi:

So‘ngra uni savdoyi derlar, // 9 (savdoyi poetizmi)

Bir tagsizning gadoyi derlar; // 9 (tagi past iborasining muallif talqinidagi tagsiz shakli + tegishlilik (-i(-si)) ma’nosining -i(-yi) shaklida berilishi) kabi.

Mazkur bobda, shuningdek, qofiyada pragmatik ta’sirning voqelanish masalasi ham o‘rganilgan. Jumladan, E.Benvenist badiiy matnni avtoreferent xususiyatli deb hisoblaydi, R.Yakobson esa lisoniy kodni axborot uzatishning ichki poetik shakli deb biladi⁵⁵. Ushbu fikrdan kelib chiqib, N.A.Fateeva singari tadqiqotchilar she’riy matnni shoirning lisoniy belgiga shaxsiy munosabatidan kelib chiqib tadqiq etish zarur, deya ta’kidlaydilar⁵⁶. Zotan, she’riy matn misolida axborot uzatishning kodlar almashinuvini ta’minlovchi nutqiy “qofiyalashtirilgan” aktlararo ichki aloqadorlik imkoniyatini tekshirish ijodkor idiolekti orqali uning lisoniy-ijodiy layoqatiga baho berish bilan barobardir. Bu yerda Y.M.Lotmanning “matn ma’noga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirmaydi, aksincha, u ishlab chiqiladi”⁵⁷ degan fikri o‘zini to‘la oqlaydi.

Doston matnidagi qofiyalangan nutqiy aktlar o‘zida lingvo-ritorik xususiyatni namoyon etadi. Bu, odatda, murojaat (nominatsiya, o‘z-o‘zini tanishtirish) va dialoglar (adresat-predmet, shaxs, voqelik, hodisa), ritorik

⁵⁴ Хамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент, 1979. — В.119.

⁵⁵ Fateeva N. A. Ko‘rsatilgan manba.

⁵⁶ Fateeva N. A. Ko‘rsatilgan manba.

⁵⁷ Лотман Ю. М. Текст как динамическая система. Структура текста. Тезисы симпозиума. — М., 1981. — С. 104-105.

soʻroqlar, savol-javobli qurilmalar boʻlishi mumkin.⁵⁸ Buni “Zaynab va Omon” dostoni qahramonlari – Zaynab va uning opasi oʻrtasida kechgan konflikt vaziyat misolidagi tahlil isbotlaydi. Jumladan, Zaynab – yetimlikda oʻsgan va ota-onadan begona qoʻllarda, och-nochorlikda katta boʻlgan qiz. Shoir undagi zabun ruhiyatni nutqiy koʻlamda voqelantirib, real hayot va ijtimoiy ruhni ichki va misra oxiridagi qofiyalarning quyidagi uygʻunligida beradi: *Niyatingga yetkur, quloq sol. Alamlaring ketkur, quloq sol.* Bunda undalma oʻrnida shakllantirilgan ijobiy maʼnoli qargʻish ichki qofiya vazifasini oʻtagan. Aslida qargʻish mazmunli bu barqaror qurilma oʻzbek lingvomadaniyatida mavjud *uying bugʻdoyga toʻlgur* ijobiy maʼnoli qargʻishlarning muallif topilmasi. *Niyatingga yetkur, alamlaring ketkur, uying bugʻdoyga toʻlgur* kabi qurilmalar soʻzlovchi nutqining modalligi, tinglovchining ijtimoiy maqomini hurmat qilish sababidan evfemik maʼnoning verballashuviga sharoit tugʻdiradi. Demak, adresat va adresantning ijtimoiy maqomi tegishli matnda yangi nominativlarning yuzaga kelishiga sabab koʻrsatadi hamda undalma oʻrnida kelgan qofiyadosh *niyatingga yetkur, alamlaring ketkur* qurilmalarini ham H.Olimjon idiolektida oʻziga xos novatorlik sifatida baholasa arziydi. Bir tarafdin, qora mehnat va chorasizlik, ikkinchi tomondan chekilgan mashaqqatlardan ungan samara – insoniylik tuygʻusining kamolotini bildiruvchi bu “qargʻish”lar semantikasida lirik qahramon orzusining implikaturasi namoyon boʻlgan: oʻziga tilaganni oʻzgaga ilinmoq hamda oʻz alamlaridan chorasizlik hissining ifodasi bir vaqtning oʻzida *niyatiga yetmoq* va *alamlarni ketkizmoq* intensiyasining ijobiy maʼnodagi qargʻish shaklini tanlashga zamin hozirlagan. Nutqiy vaziyatning qiziq jihati shundaki, shoir Zaynab siyratini butunlay “oppoq”, gunohlardan xoli “farishta” obrazida gavdalantirish tarafdori emas. Negaki keskinlashgan manfaatlar toʻqnashuvida eng maʼsum, beozor odam ham oʻzidagi xarakter xususiyatini gʻayriixtiyoriy tarzda namoyon etadi – bu hayotning oʻz-oʻzini himoya qilish qonuni. Binobarin, Zaynab qarshisida turgan kishining uning pinhon maqsadlariga toʻsiq qoʻyishga, orzularini batamom yoʻqqa chiqarishga shay ekanini, bu yoʻlda oʻzidagi biron vaj-sabab opasi tomonidan oqlanmasligini sezadi. Shunday boʻlsa-da, tegrasidagi odam – uning tugʻishgan insoni ekanini unutmaydi va fikrlarini shu tarzda ifoda etadi, biroq opasining munosabatidan butkul noroziligini anglatish maqsadida qargʻish formasini tanlaydi. Bunda soʻzlovchi va tinglovchi shaxsining dunyoqarashi, saviyasi, ijobiy yoki salbiy obrazligi, jinsi, yoshi kabi sof lisoniy omillar bilan birgalikda nutq sharoiti va vaziyati bilan bogʻliq sotsiopragsmatik omillar qahramon ruhiyatining tasviriga shundoqqina koʻchgan: **Opa:** *Benomus qiz, ayt toʻgʻrisini,* — (*benomus*; bundan: “koʻnglining ixtiyoriga koʻra qaror qabul qiluvchi ayollarning hammasi – benomus” presuppozitiv xarakterli madaniy stereotip); **Baxti qora!** *El nomusini* — (*baxti qora*; bundan: Zaynabning bu harakati oqibatini muqarrar baxtsizlik deb xulosa qilish); **Orsizlarcha** *poymol etganda,* — (*orsiz*); **Zarracha es bormidi sanda?** — (*esi yoʻq*; bundan: “sen kimsasizda ham aql bormi oʻzi?”); **Qaysi shayton yoʻlga boshladi?** — (*shayton yoʻliga kirgan*; bundan “yomon yoʻlga kiribsan”); **Qay haromi oʻtga tashladi?** — (*haromi bilan sherik*; bundan: “zoti, tagi

⁵⁸ Fateeva N. A. Koʻrsatilgan manba.

pastga o‘zini ravo ko‘rganlik” va bir vaqtning o‘zida yaqin kishisining baxtida yuqori tabaqa vakillarini sabab deb bilish – umummadaniy stereotip); *Qolib ketdik butun umrga Va shukur kim, kirmadik go‘rga.* — (“butun umr sevmagan kishimizga vafo ko‘rsatyapmiz, go‘rga kirganimiz yo‘q”; bundan: “o‘lib qolganimizcha yo‘q”); *Zaynab: Sen o‘zingni baxtli dedingmi? Opa, sen ham odam edingmi?* — (“sevgisiz baxtni tasavvur qilmayman”; bundan: “sevgisiz turmush – insonga xos emas”); *Qancha yaxshi, barno bo‘lsa ham, Qancha olim, dono bo‘lsa ham, Sobir uchun meni qiynama,*

Meni o‘tga tashlama yana. Menga yolg‘iz Omonimni qo‘y, Menga o‘sha yomonimni qo‘y. — (“yor tanlashda mening o‘z talablarim bor”; bundan: “mayli, mening yaxshim seningcha “yomon” bo‘la qolsin” – adresatning fikrini hurmat qilish, uning qaroriga e‘tiroz bildirmaslik, nutqiy konfliktda murosaning yashirin ifodasi) kabilar.

Xullas qofiya va uning tabiatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, qofiya uchun so‘z tanlash ham so‘z san‘atining muhim ko‘rinishlaridan biridir. Qofiya she‘riy nutqning asosiy tarkibiy qismi sifatida ohangdoshlik, musiqiylikni ta‘minlashi natijasida badiiylikni ta‘minlaydi, undagi musiqiylik kishiga estetik zavq bag‘ishlaydi.

UMUMIY XULOSA

Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning nutqiy xususiyatlari va badiiy-estetik mohiyatini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Shoir dostonlarining matni o‘zbek milliy tilining ijtimoiy-tarixiy an‘analariga mos lisoniy, badiiy-estetik imkoniyatlarga ega.

2. H.Olimjon dostonlari poetikasi takrorlanmas, badiiy tashbehlarga boyligi, stilistik usullarning xilma-xilligi va favqulodda rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi.

3. Qofiya so‘zlar, tovushlar vositasida vujudga kelib, fikr ifodalashga xizmat qilar ekan, u bevosita lingvistikaning ham obyekt bo‘lmog‘i kerak, shu bilan birga, qofiya badiiy san‘at turlaridan biri – poetik vosita hamdir.

4. Qofiya she‘riyatda fikrni, ohangni, o‘lchovni, pragmatik ta‘sir va intonatsion butunlikni uyushtiruvchi san‘at hisoblanadi. Shunga ko‘ra qofiyaning asosiy vazifasi poetik nutqning butunligini, fikriy tugalligini, ohangli-ifodaliligini uyushtirishdan iborat. Bu holat qofiyaning fonetik jihatdan o‘rganish ham lozimligini ko‘rsatadi.

5. Poetikaga lingvistikaning ajralmas bir qismi sifatida qarash mavjud ekan poetik vositalardan biri bo‘lgan qofiyaning esa lingvistik aspektida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko‘ra qofiya muhim poetik san‘at va leksik birlik sifatida ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik fani o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir.

6. H.Olimjon dostonlari o‘zbek tili lug‘aviy boyliklarini qamrab oladi. Bu ijodkorga obrazli nutq uchun imkon yaratadi. Shoir estetik hamda ma’no ta’sirchanligini oshirishda dialektizmlar, arxaik birliklar, kitobiy va umumiste’mol so‘zlar, variant so‘zlar, sinonim, antonim, paronimlar nihoyatda qo‘l kelgan. Bu vositalar shoir asarlari tilining badiiy-estetik ta’sirchanligini uyushtirishga xizmat qilgan.

7. Shoir dostonlarida qofiya o‘rnida qo‘llanilgan so‘zlar o‘z toifasiga ko‘ra: sof turkiycha, arabcha, fors-tojikcha so‘zlardan iborat.

8. Hamid Olimjon asarlari badiiy tasviriy vositalarga boy. Shoir ijodida badiiy tasviriy vositalar shunchaki oddiy ifodalar emas, obrazli fikrni vujudga keltiruvchi vositalar sifatida gavdalangan. Shoir metafora, o‘xshatish, ramzlardan foydalangan holda go‘zal qofiyadoshlikni vujudga keltirgan.

9. Shoir qofiyalari jarangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Bu holatni shoirning kichik she’rlaridan tortib, yirik dostonlarigacha kuzatish mumkin. Shoir qofiya tanlashda o‘zbek tilining cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib qolmasdan, xalq og‘zaki ijodida mavjud arxaik reliktlarga ham ijodiy yondashadi. Natijada qofiyaning xilma-xil ko‘rinishlari, rang-barang qofiyalanish usullari vujudga keladi.

10. Shoir ijodida qofiya she’riy misralarning ritmik bo‘linishini ta’minlab, ularni o‘zaro bog‘lab musiqiylikni kuchaytirgan. Shuningdek, qofiya orqali o‘zbek tilida boy ohangdosh so‘zlar silsilasi mavjud ekanligini ko‘rsata olgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАХИМОВА УМИДА ДЖУМАЕВНА

**ОСОБЕННОСТЬ РЕЧИ И ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ
ФУНКЦИИ РИФМЫ В ДАСТАНАХ ХАМИДА АЛИМДЖАНА**

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискании учёной степени доктора философии (PhD) по
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Термез – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2021.3.PhD/Fil1929 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Термезском государственном университете (www.tersu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Махмараймова Шохиста Тухташевна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Бахриддинова Башорат Мадиевна
доктор филологических наук, профессор

Каримов Суюн Амирович
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои


Защита диссертации состоится « 18 » « 04 » 2023 года в « 12⁰⁰ » часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 по присуждению ученых степеней при Термезском государственном университете (Адрес: 190111, г. Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел: (876) 221-74-55; факс: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрировано за № 134). (Адрес: 190111, г. Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел: (876) 221-74-55.

Автореферат диссертации разослан « 8 » « 04 » 2023 года.
(Протокол реестра № 21 от « 3 » « 04 » 2023 года).




Б. Умуркулов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор


А. Эшмуминов
Учёный секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, доцент


Ш. Якубов
Заместитель председателя научного
семинара при научном совете по
присуждению ученых степеней, кандидат
филологических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании XX века несколько выросло отдельное направление лингвистических исследований текста – исследования, проводимые по поэтической текстологии. Это направление, демонстрирующее синтез современной поэзии и классических литературных традиций, сосредоточено на изучении пяти аспектов: просодических особенностей поэтического текста, метрического-ритмического содержания, лексической системы поэтического текста, поэтической фразеологии и синтаксиса, рифмы как отдельное поэтическое искусство, организующее поэтический текст. Актуальные проблемы системного и комплексного изучения поэтического текста определили современный этап этого исследования.

В мировой лингвистике акцент делается на возможности реализации рифмы в содержательном масштабе поэтического текста, а задача ее формирования и организации мысли исследуется с позиции творческого идиолекта. Следовательно, теоретическое и практическое решение вопросов исследования рифмы в контексте синхронного и диахронического подходов как уникального художественного произведения, метода, раскрывающего формальные, семантико-прагматические характеристики поэтического текста, является одной из актуальных проблем отрасли.

В годы независимости в результате последовательных реформ, направленных на достижение конкретной цели в различных сферах общественной жизни, возросло внимание к развитию основ наших культурных ценностей, в частности, нашего национального языка и литературных традиций, которые практически пришли в забвение. В результате в нашем языкознании был проведен ряд исследований по различным направлениям поэтической текстологии. Кроме того, выявление языковых и эстетических особенностей идиолекта, присущих для каждого творца, также является одной из важных лингвистических проблем. «Каждый народ, каждое независимое государство придает приоритетное значение обеспечению своих национальных интересов, прежде всего, сохранению и развитию своей культуры, исконных ценностей, родного языка»¹. В этом смысле изучение особенностей узбекской поэзии, являющейся ярким выражением нашей национальной мысли, наших многолетних традиций и ценностей, **а также изучение художественно-эстетических особенностей рифмования**, а также всестороннее исследование источников современного развития, являются одними из самых актуальных вопросов в нашем языкознании.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730

узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года; № ПП-4479 «О широком праздновании тридцатилетия принятия закона Республики Узбекистан «О государственном языке» от 4 октября 2019 года, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 10 октября 2010 года, № 222 «Об утверждении государственной программы по охране объектов нематериального культурного наследия, сохранению, пропаганде и их использованию в 2010—2020 годы» и других нормативно-правовых документах относительно данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Изучением рифмы в науке занимались такие филологи, как: Халил ибн Ахмад, Абдурахман Джами, Алишер Навои, Абулхасан Али Сарахси Бахроми, Шамсиддин Каис Рази, Бабур, Вахид Тебризи, Атулла Хусейни, Шейх Ахмад Тарози, Фитрат, А.Рустамов, И.Мирзаев, А.Ходжихмедов, С.Каримов, Х.Мирхайдаров, А.Азамов, Х.Шарофиддинов, М.К.Хамраев, Л.И.Тимофеев, Ф.А.Хайитметов, Б.Гончаров, В.М.Жирмунский, Ю.Лотман, В.Радлов и Ф. Корш².

